TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KORYOG‘DIYEV BOBUR UMIDJON O‘G‘LI

TASVIRGA BO‘LGAN HUQUQNI FUQAROLIK – HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 347(043.5)(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KORYOG‘DIYEV BOBUR UMIDJON O‘G‘LI

TASVIRGA BO‘LGAN HUQUQNI FUQAROLIK – HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Yu1921-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Imomov Nurillo Fayzullayevich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich** yuridik fanlar doktori (DSc), professor
	Paluaniyazov Xalmuxammed Aitjanovich yuridik fanlar nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019. Yu. 22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 15-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1435-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 20-oktabrdagi 94-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.R.Rustambekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y.Xabibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K.Xodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘nggi o‘n yillikda kompyuterlar va boshqa qurilmalar, aloqa vositalari, dasturiy ta’minot, axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi jamiyatning fuqarolar tasviridan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Ushbu yutuqlar bilan birga uchinchi tomonlarning shaxsiy tasvirlardan foydalanish huquqini nazorat qilishdagi fuqaroning roli kamayib borishi kamchilik sifatida baholanmoqda. Shuningdek, zamonaviy raqamli asrda shaxs tasvirlari global tarmoqlarda bemalol tarqalib, ularni boshqarish muammolari kundalik hayotdagi masalalardan biriga aylangan. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa Sudi qarorlarida tasvir shaxsiyatning asosiy atributlaridan biri deb e’tirof etilib, bunday tasvirdan foydalanishni shaxsning roziligiga bog‘lash lozimligi ta’kidlanadi. Xususan, 2012-yilda ko‘rilgan “von Hannover Germaniyaga qarshi” sud ishida Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi shaxslar haqidagi fotosurat yoki videolar chop etilishida ularning roziligi zarurligini qayd etgan. Shu tarzda, xalqaro amaliyot shaxsiy hayot va sha’nga oid huquqlarni, jumladan, “tasvirga bo‘lgan huquqni” ta’minlash masalalari ustuvor ekanini ko‘rsatmoqda.

Jahonda so‘nggi yillarda sun’iy intellekt yordamida yuzni boshqa videoga hamda rasmga noto‘g‘ri qo‘yish ***(deepfake)*** usullari avj oldi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iste’molchilarning 60% dan ortig‘i o‘tgan yilda kamida bitta deepfake videoni ko‘rganini bildirgan[1]. Bunday texnologiyalar nafaqat yolg‘on axborot tarqatish, balki shaxs sha’ni va obro‘siga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Masalan, 2023-yilda deepfake yordamida moliyaviy firibgarliklar 3000%ga oshgani qayd etilgan[2]. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda yuzni tanib olish texnologiyalari ommalashdi. Masalan, “Clearview AI” kabi kompaniyalar bir nechta davlatlardan yig‘ilgan yuzlarga oid ma’lumotlar bazasida taxminan 30 milliarddan ortiq tasvirga ega ekanligi oshkor etilgan[3]. Bunday ommaviy ma’lumotlar bazalari va keng joriy etilgan kuzatuv kameralarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi fuqarolarning shaxsiy daxlsizligiga katta xavf soladi. O‘z navbatida, Yevropa Ittifoqi va boshqa davlatlar ushbu texnologiyalarni me’yorlashga kirishib, ma’lumotlarni himoya qilishga oid qonunlarni va sun’iy intellektga (keying o‘rinlarda AI) oid qonunchilik orqali himoya choralarini belgilamoqda. Ushbu global tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, shaxs tasviriga bo‘lgan huquq masalasi nafaqat milliy chegaralarda, balki xalqaro miqyosda ham yuqori dolzarblik kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, tasvirga bo‘lgan huquq muhofazasini fuqarolik huquqiy jihatdan ko‘rib chiqish hamda himoyaning universalligini ta’minlovchi javobgarlik choralarini ishlab chiqishga doir masalalarni ilmiy-nazariy tadqiq etish zarurati mavjudligini bildiradi.

---

[1]Sun’iy intellekt, biometrika, mashinani o‘rganish va liveness (jonlilik) aniqlash texnologiyalariga asoslangan onlayn identifikatsiya va e-KYC (Know Your Customer) platformasi hisoblanuvchi Jumio kompniyasining **2024-yilgi Online Identity Study** (“Onlayn Identifikatsiya Tadqiqoti”) natijalariga asoslanadi. https://eftsure.com/statistics/deepfake-statistics/#source-wrapper (murojaat etilgan sana: 12.05.2025).

[2]Raqamlar 2023-yilda **Onfido** (“ID Verification” sohasidagi Londondagi kompaniya) tomonidan e’lon qilingan hisobotdan olindi. https://www.entrust.com/products/identity-verification (murojaat etilgan sana: 12.05.2025).

[3] Clayton, J., & Derico, B. (2023, March 28). Clearview AI used nearly 1m times by US police, it tells the BBC. BBC News. https://www.bbc.com/news/technology-65057011 (murojaat etilgan sana: 20.08.2024).

O‘zbekistonda respublika Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi PF–5464-son farmoyishi bilan tasdiqlangan fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida shaxs tasviriga bo‘lgan huquqni ishonchli himoya qilish vazifasi qo‘yildi. Shunga qaramay, shaxslarning tasviridan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarda shaxsiy daxlsizlik huquqi uni amalga oshirish mexanizmlari bilan ta’minlanmaganligi sababli cheklanmoqda. Amaldagi fuqarolik qonunchiligida shaxsning o‘z tasviriga bo‘lgan huquqi (**image right**) alohida mustaqil obyekt sifatida mukammal tartibga solinmagan. Fuqarolik kodeksining 99-moddasi shaxsning nomulkiy huquqlari safida “nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar”ni sanab o‘tgani bilan, bu huquqlar mazmuni va himoyasi bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilamagan. Aksariyat hollarda shaxsning tasvirini ruxsatsiz e’lon qilish va ishlatish masalalari tasodifiy tushuntirishlarga tayanib qoladi[4]. Shu sababli O‘zbekiston kontekstida mazkur huquqni fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammosi dolzarb bo‘lib, alohida normativ normalar bilan aniqlashtirishga zarurat mavjud. Fuqarolar tasvirlari bilan bog‘liq masalalar, ayniqsa, amaliy vaziyatlarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston qonunchiligi va huquq doktrinasida zarur darajada ishlab chiqilmagan, bu o‘z navbatida hujjatlarni rasmiylashtirish, buzilgan tasvir huquqini himoya qilish va shaxsiy hayot daxlsizligi huquqlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Xorijiy mamlakatlarda tasvirga bo‘lgan huquqqa oid munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bo‘yicha quyidagi huquqiy doktrinalar amal qiladi: “Shaxsiy nomulkiy huquq doktrinasi” **(*image right as a subset of personality*)**, “Mulkiy huquq doktrinasi” **(*image as a property right doctrine*)**, “Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi doktrinasi” **(*privacy right doctrine*)**, “shaxs tasvirini fotografning mualliflik huquqi obyekti sifatida muhofazalash yondashuvi” ***(moral right doctrine)***, “tasvirni shaxsiy ma’lumot sifatida muhofazalash doktrinasi” **(*data protection*)**. Yondashuvlar orasidan mamlakatimiz huquq nazariyasi va qonunchiligida tasvirga bo‘lgan huquq himoyasining nisbatan universalligini ta’minlovchi rejimni asoslantirish, mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro norma va tamoyillarga moslashtirish, uning muvozanatli va moslashuvchan normativ-huquqiy baza sifatidagi o‘rnini mustahkamlash hamda innovatsion yechimlarni taklif etish zarurati tadqiqotda ko‘rib chiqiladigan asosiy masalalardan hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995-1996-yillar), O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi (1997-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi (2004-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (2007-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi (2019-yil), O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi (2022-yil) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi “Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5464-sonli farmoyishi va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining amalga oshirilishini muayyan darajada ta’minlashga xizmat qiladi.

[4]https://www.kun.uz/news/2020/01/15/ozbekistonda-fuqaroning-foto-tasviridan-uning-ruxsatisiz-foydalanish-mumkinmi#:~:text=Biroq%2C%20milliy%20qonunchilikda%20fuqaroning%20tasvirga,huquqi%20daxlsizligi%20chegaralari%20aniq%20belgilanmagan (murojaat etilgan sana: 08.03.2024)

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutuvchi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning II bo‘limida belgilangan mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga doir ustuvor yo‘nalishi asosida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bevosita fuqaroning tasviri bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar va huquqiy muammolarni kompleks tadqiq qilish bo‘yicha milliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar mavjud emas. Biroq shaxsiy nomulkiy huquqlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari doirasida fuqaroning o‘z imidjiga bo‘lgan huquqi nomoddiy obyekt sifatida o‘rganilgan. Jumladan, akademik H.Rahmonqulov, professor I.Zokirov, professor O.Oqyulov, N.Imomovlar shaxs huquqlari, qadr-qimmati, daxlsizligi kabi huquqlar va ularning himoyasi, inson shaxsiy huquqlariga putur yetkazilishi natijasida kelib chiqadigan ma’naviy zararni qoplash masalalari va muammolarini aks ettiruvchi qator ilmiy ishlar e’lon qilishgan[5].

Fuqarolik huquqiy tadqiqotlar ichida I.Nasriyev, T.Umarov, A.Hasanov, A.Xolmatov, X.Paluaniyazov, R.Xonnazarov, I.Yakubovalarning shaxsiy nomulkiy huquqlar bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqotlari, ayniqsa, diqqatga sazovor[6].

Xorijiy olimlardan jismoniy shaxsning o‘z tasviriga bo‘lgan huquqi bilan bog‘liq ayrim masalalarni o‘rganish bilan turli vaqtlarda A.V.Zavadskiy, K.B.Yaroshenko, I.A.Pokrovskiy, E.A.Fleyshits, M.N.Maleina, L.O. Krasavchikova, A.A.Nikolayeva, A.M.Erdelevskiy, E.P.Gavrilov, S.P.Grishayev, A.M.Zinin, I.V. Vorobyova, D.G.Durnaykin, V.A. Mikryukov, A.V.Ivanov, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va ingliz huquqi mamlakatlari tadqiqotchi olimlaridan J. Barta, R. Markiyewicz, A. Matlak, R.Moosavian, D.Mangan, S.Ch.Ekaratne, T. Fricke, K. Stefaniuk, Gugo Keysner va Lauriye Propolislar shug‘ullangan[7]. Ushbu tadqiqotlarda fuqaroning o‘z tasviriga bo‘lgan huquqi masalalari bo‘yicha keltirilgan nazariy fikrlar va xulosalar hozir ham dolzarbdir.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va ilmiy tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi fuqarolarning tasvirga bo‘lgan huquqini fuqarolik huquqining obyekti sifatida nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganish, ushbu huquqning mazmun-mohiyatini aniqlash, uni huquqiy jihatdan himoya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda tasvirdan roziliksiz foydalanish holatlarida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tasvirga bo‘lgan huquq muhofazasining tarixiy rivojlanishi va mavjud nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

[5] Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.
[6] Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.
[7] Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

tasvirni fuqarolik huquqining obyekti sifatida baholashning nazariy asoslarini aniqlash;

tasvirga bo‘lgan huquqni muhofazalashning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish;

tasvirdan bosma nashrlarda (parodiya yoki karikatura janrida) foydalanishning huquqiy muammolarini o‘rganish hamda ularga yechim berish;

tasvirni komodifikatsiyalash bilan bog‘liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida shaxs tasviridan Internetda foydalanishni huquqiy tartibga solish;

tasvirga bo‘lgan huquq buzilganda qo‘llaniladigan fuqarolik-huquqiy himoya vositalarini o‘rganish va ularning samaradorligini baholash;

ommaviy va xususiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash uchun qo‘llaniladigan cheklovlarni o‘rganish;

fuqarolarning tasvir huquqini samarali himoya qilishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, shu jumladan, amaldagi qonunchilikka o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar berish.

Tadqiqotning obyektini tasvirga bo‘lgan huquqni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti. Tadqiqot mavzusi O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi, fuqaro tasviridan foydalanilganda yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik qonunchiligini, xalqaro huquq va ayrim xorijiy davlatlarning milliy qonunchiligi normalarini o‘rganishni, shuningdek fuqaro tasviridan foydalanish, uni muhofaza va himoya qilish borasidagi nazariy va amaliy ilmiy ishlanmalar, sud amaliyoti materiallarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy va empirik usullar majmuasi, shu jumladan, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik, tizimli-tahliliy, dialektik usul, analiz va sintez usuli, normativ-huquqiy va amaliy tahlil usuli, umumlashtirish, mantiqiylik, huquqni qo‘llash va sud amaliyotini tahlil qilish kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fuqaroni tasvirga olish va undan foydalanishda rozilik olish majburiyligi, 16 yoshga yetgan shaxslar rozilik berishda mustaqil subyekt bo‘la olishligi hamda jamoat va davlat manfaatlarini hisobga olganda roziliksiz ham tasvirdan foydalanish mumkin bo‘lgan holatlar mavjudligi asoslantirilgan;

tasvirga bo‘lgan huquq shaxsiy hamda ommaviy manfaatlar kesishmasida muvozanatni ta’minlash vazifasini keltirib chiqarishi tahlil qilinib, ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalar taniqli vakillarining tasviridan jamiyat uchun katta qiziqish uyg‘otadigan axborotni tarqatish maqsadlarida foydalanilganda rozilik talab etilmasligi asoslantirilgan;

fuqaroning shaxsiy hayoti, shu jumladan, uning kelib chiqishi, yashash joyi, shaxsiy va oilaviy hayoti to‘g‘risidagi har qanday axborotni yig‘ish, saqlash, tarqatish va foydalanishga uning roziligisiz yo‘l qo‘yilmasligi asoslantirilgan;

huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining foto va (yoki) videotasvirini

ularning obro‘sizlantirilishiga olib keladigan tarzda buzib tarqatish uchun javobgarlikni kuchaytirish asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

amaldagi qonunchilikda inson tasvirining huquqiy maqomi to‘liq va aniq belgilanmaganligi, ushbu huquqni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari aniq ko‘rsatilmaganligi aniqlanib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga inson tasviri bilan bog‘liq mustaqil norma kiritish zarurati asoslab berildi;

fuqarolarning roziligisiz ularning tasviridan mahsulot reklamasi, brend yaratish yoki boshqa daromad olish maqsadida foydalanishga oid nizolarni hal qilishda aniqlik kiritish zarurati asoslantirilib, tasvir huquqining tijoratlashtirilishi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish taklif qilindi;

axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarning tasviridan foydalanishning huquqiy chegaralari belgilandi;

sud-amaliyotida tasvir huquqining buzilishi bilan bog‘liq da’volarni ko‘rib chiqishda yagona yondashuv ishlab chiqish zarurati tufayli tasvirga bo‘lgan huquq bilan bog‘liq Oliy Sud Plenumi qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu dissertatsiya tadqiqotining nazariy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar fuqarolarning tasviri bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni chuqur tahlil qilish hamda ularni huquqiy jihatdan tartibga solish borasidagi mavjud nazariy qarashlarni boyitadi. Tadqiqot natijalari shuningdek, fuqaroning individual qiyofasini aks ettiruvchi tasvirdan foydalanish institutini yanada chuqurroq o‘rganish, mavjud tushunchalarni takomillashtirish va bu boradagi huquqiy normalarni rivojlantirish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Tadqiqotdan kelib chiqqan ilmiy g‘oyalar fuqarolarning tasviriga oid huquqiy munosabatlarni ilmiy jihatdan yoritishda va keyingi tadqiqotlar uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda ilgari surilgan taklif va tavsiyalar amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, fuqarolarning tasvirlaridan foydalanish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tizimli tartibga solish imkonini beradi. Jumladan, fuqaro tasviridan foydalanishni shartnomalar va qonuniy asosda amalga oshirish, tasvirlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek fuqarolarning shaxsiy va mulkiy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha amaliy choralarni ko‘rish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari tadqiqot natijalari fuqarolarning tasvirlarini tijorat muomalasiga jalb qilish, tasvirlar bozorini shakllantirish, kompensatsiya miqdorini asosli belgilash va shu sohadagi nizolarni tezkor hamda adolatli hal etishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, tadqiqot natijalaridan respublikada endi rivojlanayotgan “Ommaviy axborot vositalari huquqi” (***Mass Media Law***) hamda “Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi” (***Privacy Law***) modullari bo‘yicha yoziladigan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarni yaratish, ma’ruza matnlari, o‘quv kurslarining dasturlarini tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tasvirga bo‘lgan huquqni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

fuqaroni tasvirga olish va undan foydalanishda rozilik olish orqali himoya qilish bilan bog‘liq taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasining 109-moddasi birinchi qismida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Qonunchilik departamentining 2025-yil 22-iyuldagi 8/0010-02-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi tasvirga bo‘lgan huquq muhofazasi uchun huquqiy asos yaratishga, shuningdek shaxs tasviridan foydalanishni tartibga solishga xizmat qilgan;

ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalar taniqli vakillarining tasviridan jamiyat uchun katta qiziqish uyg‘otadigan axborotni tarqatish maqsadlarida foydalanilganda rozilik talab etilmasligi bilan bog‘liq taklif yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasining 28-moddasi uchinchi qismi ikkinchi bandida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Qonunchilik departamentining 2025-yil 22-iyuldagi 8/0010-02-son dalolatnomasi). Ushbu taklif jamoat arboblari, mashhurlarning tasvirga bo‘lgan huquqini maxsus rejimda muhofazalashga hamda axborot olishga bo‘lgan erkinlikni ta’minlashga xizmat qilgan;

fuqaroning shaxsiy hayoti bilan bog‘liq axborotdan foydalanish tartibiga oid taklif yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasining 110-moddasi birinchi-ikkichi qismlarida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Qonunchilik departamentining 2025-yil 22-iyuldagi 8/0010-02-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi fuqaroning shaxsiy hayotini fuqarolik huquqiy muhofaza qilishga xizmat qilgan;

huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining foto va (yoki) videotasvirini ularning obro‘sizlantirilishiga olib keladigan tarzda buzib tarqatish uchun ma’muriy javobgarlikka oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 195^2-moddasida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Qonuniylik va huquqiy tartibotni ta’minlash muammolarini tahlil qilish boshqarmasining 2025-yil 17-iyuldagi 27/2-158-25-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning joriy etilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining tasvirga bo‘lgan huquqlarini samarali himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali ularning shaxsiy-nomulkiy huquqlari himoyasini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta maqola (3 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘qqizta paragrafdan iborat uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslantirilib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti yoritib berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi aniq ko‘rsatilib, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan aloqadorligi, usullari, ilmiy yangiligi va ahamiyati tahlil qilingan. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Fuqarolarning tasviriga bo‘lgan huquqining umumiy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida inson tasvirini huquqiy muhofaza qilishning tarixiy tajribasi, unga oid huquqiy yondashuvlar, fuqaro tasvirining yuridik tabiati, uning nomoddiy obyekt sifatidagi tasnifi, O‘zbekiston hamda xorijiy mamlakatlarda ushbu huquqni muhofazalashning xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan. Ijtimoiy munosabatni tartibga solish hamda u bilan bog‘liq huquqning zaruriyatini baholashdan oldin, avvalo, ushbu huquq bilan bog‘liq amaliyotni aniq tushunish muhimdir. Dissertant birinchi bobda tasvirga bo‘lgan huquq bilan bog‘liq hozirgi amaliyotni o‘rganishni asosiy maqsad qilib oladi. Buning uchun, birinchidan, shaxs tasviriga oid huquqqa nisbatan doktrinal yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotchi fuqarolik huquqining obyekti sifatida tasvirga bo‘lgan huquq bilan bog‘liq ilmiy yondashuvlarni (tasvirga bo‘lgan huquqni shaxsiy nomulkiy huquqlarning bir turi sifatida ko‘rish ***(Publicity as a subset of personality rights)*** (H.Rahmonqulov, I.Zokirov, I.Nasriyev, I.Yakubova, B.Smith, E.Logeais, A.Nikolayeva, L.Krasavchikova), tasvirga bo‘lgan huquqni mulk sifatida qarash ***(Publicity as property)*** (M.B.Nimmer, Jerome Frank, Mc.Carthy)***, “Shaxsiyatdan ruxsatsiz foydalanish” (Appropriation of personality)*** (Justice Estey, D.Vaver, R.Howel), uni shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tarkibida ***(Privacy rights doctrine)*** muhofazalash (S. Warren, L.Brandeis), mualliflik huquqi singari himoya qilish ***(Moral rights doctrine)*** (A.Zavadskiy, A. Matlak) hamda shaxsga doir ma’lumot sifatida himoyalash nazariyalarini o‘rganadi va O‘zbekiston uchun huquq oilasi, tizimi, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti e’tiboridan tasvirga bo‘lgan huquqni **shaxsiy nomulkiy huquq sifatida monistik model** orqali muhofazalash ma’qul ekanligini asoslab beradi. Ushbu yondashuvda shaxsiy nomulkiy huquqlar (jumladan, tasvirga bo‘lgan huquq) egasi bilan ajralmas darajada bog‘liq bo‘lib, ular insonni jismoniy va ma’naviy mavjudot sifatida tan oladi hamda uning o‘z mavjudligini his qilish huquqini kafolatlaydi. Shu sababli, bu yondashuvga ko‘ra shaxsiy nomulkiy huquqlar har bir insonning asosiy (fundamental) huquqlari hisoblanib, o‘zidan begonalashmaydi. Monistik model kontinental yondashuvda dualistik modelga muqobil sifatida qo‘llanilib, uning mazmuni bitta umumiy shaxsiy nomulkiy huquq (ya’ni ***general personality right***) bir vaqtning o‘zida ham axloqiy (***dignitarian***), ham iqtisodiy (***economic***) manfaatlarni himoya qilishi bilan belgilanadi.

Birinchi bobda, shuningdek, milliy olimlardan I.Zokirov, O.Oqyulov, A.Hasanov, I.Nasriyev, xorijiy huquqshunoslardan J. Barta, R. Markiyewicz, A. Matlak, M.N.Maleina, L.O. Krasavchikova, A.A.Nikolayeva fikrlari umumlashtirilib, tasvirga bo‘lgan huquqni qonun doirasida muhofazalashni takomillashtirish va amaliyotda to‘g‘ri qo’llay olish maqsadida uni eksklyuziv shaxsiy nomulkiy huquq sifatida tasniflash lozimligi asoslantiriladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tasvirga bo‘lgan huquqdan foydalanishni huquqiy tartibga solish muammolari”**ga bag‘ishlangan. Unda bosma materiallarda, audiovizual asarlarda, shuningdek, “parodiya” yoki “karikatura” janrida yaratilgan fuqarolarning tasvirlaridan foydalanish, tasvir huquqini tijoratlashtirish bilan bog‘liq hamda Internetda foydalanishning huquqiy asoslari o‘rganiladi.

Dissertantning o‘rganishlari va kuzatuvlariga ko‘ra globallashuv va texnologik rivojlanish zamonida shaxs tasvirlaridan nomuvofiq foydalanish ko‘lami sezilarli ortdi. Bunday holatda individga tegishli subyektiv huquqni himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun nafaqat huquqbuzarlarning dalillarini, shuningdek fuqarolarning tasvirlaridan noto‘g‘ri foydalanishning eng keng tarqalgan usullarini tahlil qilish va ularga huquqiy baho berish, shuningdek tasvirga bo‘lan huquq muhofazasini istisno etadigan holatlarni qiyosiy o‘rganish muhimdir. Tadqiq qilingan holatlar ichida bosma materiallarda, audiovisual asarlarda, tijoriy tovarlar hamda internetda tasvirdan nomuvofiq foydalanish tez-tez uchrashi ayon bo‘ldi. Bularga sabab sifatida esa har xil obyektiv hamda subyektiv omillar tahlil qilinadi.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan shaxs tasvirini tijorat maqsadida foydalanishga oid nazariy qarashlar ham, aynan, ushbu bobda ko‘rib chiqildi. Nazariy jihatdan, tasvir huquqining tijoratlashtirilishiga oid ikki asosiy yondashuv mavjudligi, birinchi yondashuv – ***shaxsiy huquqiy yondashuv (personalistik)*** bo‘lib, unga ko‘ra, tasvir huquqi shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bevosita bog’liq va uni tijorat vositasiga aylantirish inson huquqlarining buzilishi sifatida baholanishi, ikkinchi yondashuv – ***iqtisodiy huquqiy yondashuv (utilitarizm)***, bu nazariyaga ko‘ra, shaxsning tasviri intellektual mulk sifatida ko‘rilishi mumkin va unga egalik qilish orqali tijorat daromadi olish tabiiy huquq sanalishi haqidagi fikrlar atroflicha o‘rganildi. Yondashuvlar xulosasi sifatida O‘zbekiston amaliyotiga tasvirga bo‘lgan huquqni tijoratlashtirish uchun iqtisodiy huquqiy doktrinaga o‘tish lozimligi, komodifikatsiyani amalga oshirish uchun esa fuqarolik qonunchiligida tasvirdan iqtisodiy jihatdan foydalanish mumkinligi haqidagi normani aks ettirish va shartnoma, meros qoldirish, jamoaviy boshqaruv asosida tijoratlashtirish kabi mexanizmlarni qo‘llash mumkinligi tahlil qilindi.

Bobning ikkinchi rejasida tasvirdan tijoriy maqsadda foydalanish amaliyoti aslida qanday ekani aniqlashtirildi va bunday foydalanishning predmeti quyidagi uch yo’nalishda ifodalanishi asoslab berildi:

I. Ommaviy axborot vositalarida (OAV) axborot maqsadida foydalanish; **II.** Reklama yoki tovar targ‘iboti maqsadida foydalanish; **III.** Tovarlashtirish (merchandising) maqsadida – bunda shaxs qiyofasidan tovarlarning o‘zida tasvir sifatida yoki foydalaniladigan predmet sifatida foydalanish.

Tijoriy yo‘nalishlar orasida eng keng tarqalgani reklama bo’lganligi uchun, tasvirdan bunday maqsadda foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlari atroflicha o‘rganildi. O‘zbekistonda mavjud reklamaga oid qonunchilik tahlil qilinib, tasvirdan reklamada foydalanishda doim shaxsning roziligi talab qilinishi belgilangani, bunday qoida nafaqat mamlakatimiz qonunchiligi, balki boshqa mamlakatlar qonunchiligida ham bir xillikni kasb etishi haqidagi xulosaga kelindi. Qolaversa, reklamaga oid ommaviy huquq qoidalarining tasvirga bo’lgan huquq bilan bog‘liq xususiy huquq qoidalarining kolliziyasi ham tadqiq qilinib, bu borada rus olimasi M.N.Maleinaning qarashlari alohida ko‘rib chiqildi.

Ikkinchi bobning uchinchi rejasi doirasida shaxs tasviridan Internetda foydalanish bilan bog‘liq huquqiy masalalar muhokama qilindi. Xususan, Internetda fuqarolar tasvirlaridan foydalanish holatlariga xos muammolar qatoriga 1) fuqaroning Internet tarmog’ida tasviri roziliksiz foydalanilganligi faktini lozim darajada isbot qiluvchi dalillarni to‘plash, 2) javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan subyektni aniqlash; 3) tasvirning raqamli muhitdagi shakllari (avatar, token, NFT kabi)ni tasvirga bo‘lgan huquq doirasiga tushirish masalalarini kiritish mumkinligi aytib o‘tildi. Reja mana shu uch muammoni keyingi o‘rinlarda kengroq tahlil qilishga bag‘ishlandi. Yuqoridagi muammolarga yechim sifatida Internetda yoki boshqa axborot-aloqa tarmoqlarida fuqaroning tasviri e’lon qilingan yoki foydalanilgan bo‘lsa-yu, biroq buni amalga oshirgan shaxs aniqlanmasa, bunday huquqbuzarlik uchun javobgar shaxs deb tasvir joylashtirilgan resurs (sayt, platforma) egasi hisoblanishi kerakligi haqidagi nazariy taklif asoslantirildi. Shuningdek, amaldagi Fuqarolik kodeksi fuqarolarning tasvirlaridan Internetda foydalanish bo‘yicha maxsus qoidalarni o‘z ichiga olmasligi, boshqa qonun hujjatlarida ham bunday normalar mavjud emasligi sababidan shaxs roziligisiz tarqatilgan tasvirlarni Internet tarmog’idan o‘chirish, qolaversa, ushbu tasvirni tarqatishni to‘xtatish yoki taqiqlash talabi da’vogar tomonidan javobgarga qo‘yilishi haqidagi qoidani qonunchilikka kiritish haqidagi taklif ilgari surildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Fuqaroning tasviriga bo‘lgan buzilgan huquqini himoya qilish masalalari”** deb nomlanib, unda O‘zbekistonda tasvirga bo‘lgan huquqni himoya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, xorijiy mamlakatlarda tasvirga bo‘lgan huquq himoyasi, himoyani istisno etuvchi sabablar va ushbu huquqqa daxl qilinganda qo‘llaniladigan fuqarolik javobgarlik choralarini takomillashtirish istiqbollari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganilgan. Bobning birinchi rejasida O‘zbekistonda shaxsning tasvirga bo‘lgan huquqini himoya qilish bo‘yicha mavjud qonunchilik va sud amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Dissertantning fikricha, amaldagi Fuqarolik kodeksida bevosita tasvir huquqi mustaqil huquq sifatida nazarda tutilmagan bo‘lsa-da, uni shaxsiy nomulkiy huquqlarning tarkibiy qismi sifatida talqin qilish mumkin. Sud amaliyoti tajribalari shuni ko‘rsatadiki, amaldagi qonunlarda bu huquqni buzilishidan himoya qilish tartibi noaniq va umumiy tusda ifodalangan, bu esa sud organlariga keng talqin doirasini qoldiradi. Shu sababli, tasvirga bo‘lgan huquqni mustaqil huquq sifatida normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurati mavjud.

Ikkinchi rejada tasvir himoyasi ham mutlaq emasligi, ayrim mustasno holatlar cheklov sifatida ommaviy manfaatlarni ham hisobga olishi o‘rganilgan. Xususan, tasvirga bo‘lgan huquqni o‘z qonunchiligi bilan alohida normalar asosida muhofaza qiladigan mamlakatlarning aksariyatida qoidalar mazmuni turli xil bo‘lsada, shaxsning o‘z tasviriga bo‘lgan huquqi uning roziligini olish zarurati hisobidan muhofazalanishi borasida umumiylikka ega. Biroq, rozilik olish ham boshqa qoidalar kabi istisnolarsiz emas. Bir qator bahslarga qaramay, huquqiy tizimlar ommaviy hamda shaxsiy manfaat orasida muvozanatni saqlash maqsadida shaxsning tasvirini olish va nashr etish uchun uning roziligini talab qilmaslik mumkin degan xulosaga kelishgan. Shu sababdan, ushbu bobda bu boradagi xorijiy tajriba o‘rganilib, shaxs tasviridan roziliksiz foydalanish mumkin bo‘lgan holatlarni tasvir huquqi himoyasiga oid taklif qilinayotgan maxsus moddaga qo‘shimcha sifatida kiritish taklif qilinadi.

Tadqiqotchi, xususan, uchinchi bobning rejalarida tasvirdan huquqbuzarlikka qarshi kurashish maqsadida, davlat va (yoki) jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi voqea-hodisalar haqida xabar berishda; tasvirdagi shaxsning jinoyat sodir etganligi yoki bedarak yo‘qolganligi sababli qidiruv e’lon qilishda; davlat xizmatchilarining xizmat vazifalarini bajarishi jarayonidagi tasviridan foydalanishda ommaviy hamda shaxsiy manfaat orasidagi muvozanatni saqlash uchun roziliksiz foydalanish mumkinligi, tasvirga bo‘lgan huquqning bunday cheklanishida ham o‘ziga xos shartlar mavjudligini asoslab beradi.

Shuningdek, dissertant tomonidan fuqarolarning so‘z, axborot erkinligi, madaniy almashinuvning ijtimoiy zarurati e’tiboridan fuqaro ommaviy tadbirlarda (konsert, bayram sayillari va boshqa) va jamoat joylarida tasvirlangan hamda tasvirdan foydalanishdan maqsad faqat ushbu joylardagi umumiy jarayonlarni namoyish etish bo‘lsa; davlat va jamoat arboblari hamda ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalar taniqli vakillarining tasviridan jamiyat uchun katta qiziqish uyg‘otadigan axborotni tarqatish maqsadlarida foydalanilganda; fuqaroning haq evaziga tushirilgan tasviridan ushbu tasvirni tushirishdan ko‘zlangan maqsadlarda foydalanilganda ham rozilik talab etilmasligi taklifi ishlab chiqiladi.

Bobning uchinchi rejasida tasvirga bo‘lgan huquqlarga daxl qilinganda qo‘llaniladigan fuqarolik javobgarlik choralari tahlil qilinib, amaldagi ma’naviy zararni qoplash, huquqni tan olish, huquq buzilishini oldini olish kabi vositalar yetarli darajada samarali emasligi asoslab berilgan. Ayrim hollarda shaxs roziligisiz tarqatilgan tasvirni himoyalashda javobgar shaxsni aniqlab bo‘lmasligi, bu esa huquq buzilishi oqibatlarini bartaraf qilishni murakkablashtirishi, shu bois, muallif tomonidan javobgarlarni fuqarolik huquqiy javobgarlikka tortishda, ular shaxsini aniqlashning imkoni bo‘lmaganda **domen adminstratorlarini subsidiar javobgar** sifatida jalb etish, ma’naviy zarar bilan birga **tovon pulini** muqobil javobgarlik chorasi sifatida qonunchilikka kiritish, shaxs tasvirining iqtisodiy jihatini himoya qilish uchun asossiz boylik orttirish konstruksiyasini qo‘llagan holda **“gipotezaviy litsenziya haqqini”** joriy qilish, rozilik bitimlarining shartnoma sifatidagi maqomini mustahkamlash, qolaversa, tasvir huquqi internetda buzilganda huquqni buzuvchi harakatlarni oldini olishning maxsus tartibini belgilash taklif etilgan.

XULOSA

Shaxsning tasvirga bo‘lgan huquqi O‘zbekiston qonunchiligida nazariy va qiyosiy jihatdan o‘rganilishi yuzasidan quyidagi taklif va xulosalarga kelindi:

I. Fuqarolik huquqi nazariyasini takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalar:

1.1. Xorijiy mamlakatlarning nazariy va amaliy tajribasiga tayangan holda tasvirga bo‘lgan huquq tushunchasi hamda uning yuridik tabiati quyidagicha belgilandi: “**Tasvirga bo‘lgan huquq** — bu shaxsning o‘z tasviri (ya’ni fotosurati, videosi, portreti yoki boshqa har qanday ko‘rinishdagi tasviri) ustidan nazorat qilish va undan foydalanishni cheklash huquqidir”. Shaxs tasvirining nomoddiy ne’mat sifatida huquqiy tabiatini tavsiflaydigan bo‘lsak, ushbu nomoddiy ne’mat bajaradigan funksiyasiga ko‘ra shaxsni identifikatsiyalovchi ne’mat; huquqiy ta’sir obyektiga ko‘ra nomulkiy huquq emas, balki nomoddiy ne’mat; vujudga kelish usuliga ko‘ra qonun normalari asosida vujudga keladigan nomoddiy ne’mat; mulkiy tarkib mavjud yoki mavjud emasligiga ko‘ra esa mulkiy tarkibga ega nomoddiy ne’matlar guruhiga kiradi.

1.2. Zamoniy fuqarolik huquqi nazariyasida tasvirga bo‘lgan huquqni shaxsiy nomulkiy huquqlarning bir turi sifatida ko‘rish **(*Publicity as a subset of personality rights*)**, tasvirga bo‘lgan huquqni mulk sifatida qarash **(*Publicity as property*), “shaxsiyatdan ruxsatsiz foydalanish” (*Appropriation of personality*),** uni shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tarkibida **(*Privacy rights*)** muhofazalash, mualliflik huquqi singari himoya qilish **(*Moral rights doctrine*)** hamda shaxsga doir ma’lumot sifatida himoyalash kabi yondashuvlar har tomonlama o‘rganildi. O‘zbekiston uchun huquq oilasi, tizimi, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti e’tiboridan tasvirga bo‘lgan huquqni **shaxsiy nomulkiy huquq sifatida monistik model** orqali muhofazalash ma’qul ekanligi asoslab berildi.

1.3. Tasvirga bo‘lgan huquq ham boshqa subyektiv huquqlar singari subyekti, obyekti hamda mazmuni kabi tarkibiy elementlariga ega. Bunda tasvir deganda obyekt nuqtai nazaridan qamrab oluvchi chegarani aniqlash muhim. Shu sababdan, imloviy lug‘atlar hamda huquqshunoslik adabiyotlarini o‘rgangan holda fuqaroning tasviriga quyidagi huquqiy ta’rifni taklif etdik: “**Fuqaroning tasviri – bu tashuvchi vositalar orqali obyektivlashtirilgan ma’lum bir jismoniy shaxsning taniluvchi tashqi qiyofasini qamrab oladigan axborot shakli”**.

1.4. Tasvirga bo‘lgan huquq doirasini aniqlash va shaxsni tanib olish muammosini amalda osonlashtirish uchun tasvirning aks etish usullari va ularning natijasi bo‘lgan shakllar tadqiq qilindi. Pirovardida, shaxs tasvirini vizual, audio, “badiiy niqob”, yozma va “tana san’ati (body art)” usullari orqali aks ettirish mumkinligi asoslantirildi. Bu orqali tasvirga bo‘lgan huquq himoyasida uning doirasini an’anaviy tor ma’noda tushunish bo‘yicha qarashlar inkor qilindi.

1.5. Tasvirga bo‘lgan huquqni qonun doirasida muhofazalashni takomillashtirish va amaliyotda to‘g‘ri qo’llay olish maqsadida uni eksklyuziv shaxsiy nomulkiy huquq sifatida quyidagicha tasniflash lozimligi asoslantirildi: **(i)**

ushbu huquq shaxs tug‘ilgan paytdan boshlab ro‘yxatdan o‘tkazishsiz yoki boshqa rasmiy talablarsiz vujudga kelishi kerak; **(ii)** tasvirga bo‘lgan huquq shaxs hayoti davomida amal qilishi kerak; **(iii)** huquq egasining hayoti davomida ajralmas (ya’ni, begonalashtirilmaydigan) bo‘lishi lozim – uni faqat litsenziyalash mumkin, lekin to‘liqligicha topshirish (begonalashtirib yuborish) mumkin emas; **(iv)** shunga qaramay, tasvir egasiga tirikligi paytida muayyan ro‘yxatdan o‘tish sharti bilan(tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish singari) vafotidan keyin bu huquqni meros qilib o‘tkazish va merosxo‘rlar tomonidan amalga oshirish imkoniyatini berish kerak; **(v)** so‘z va axborot erkinligi ushbu huquqdan ruxsatsiz foydalangan hollarda ham uni oqlovchi omil sifatida amal qilishi lozim; **(vi)** tasvirga bo‘lgan huquqdan ruxsatsiz foydalanish asoslari davlat va jamiyat manfaatlariga tayanib, madaniy-kommunikativ maqsadlarda bo‘lishi zarur; **(vii)** shaxs tasviridan noqonuniy foydalanish holatlariga qarshi mavjud himoya usullari bunday foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik (interdict) va buzilgan huquqni tiklashni ta’minlay olishi kerak; **(viii)** tasvirga bo‘lgan huquqni himoya qilish bilan bog‘liq javobgarlik choralari shaxsning sha’ni va iqtisodiy manfaatlarini inobatga olgan holda mulkiy va/yoki nomulkiy tusda bo‘lishi kerak; **(ix)** huquq buzilishi natijasida zarar mavjud bo‘lmasa, sud asossiz boylik orttirish konstruksiyasini qo‘llagan holda “gipotezaviy litsenziya haqqini” undirishni ko‘rib chiqishi kerak; **(x)** tasvirga bo‘lgan huquqdan vakolatli foydalanuvchilar huquqni buzgan uchinchi shaxslarga nisbatan ham, litsenziya shartlarini buzgan shaxsga (shaxsning o‘ziga) nisbatan ham da’vo kiritish huquqiga ega bo‘lishi kerak.

1.6. Nomoddiy ne’matlarning ayrimlari mulkiy tarkibga egaligi e’tiboridan ularni uchinchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatida aktiv sifatida foydalanish imkoniyati qonun doirasida tan olinishi kerakligi asoslantirildi.

1.7. Tasvirdan tijoriy maqsadda foydalanishda obyekt yana ham murakkablashadi. Bunday foydalanishning obyektini **shaxsning obrazi** deb tushunish maqsadga muvofiq, bu esa o‘z navbatida quyidagi tor elementlarga ajratilishi mumkin: **tasvir, identifikatsiyalovchi belgi (indicia)** va **shaxsga oid ma’lumot**. Biroq bu elementlar aslida foydalanilayotgan ichki “aktiv” – ya’ni, **obro‘ (reputatsiya)** – ning jismoniy ko‘rinishdagi shakllari sifatida ham qaralishi mumkin. Chunki obro‘siz – mashhurlik va jamoat orasidagi maqomsiz – tasvirdan iqtisodiy maqsadning birortasida deyarli foydalanilmaydi.

1.8. Internetda yoki boshqa axborot-aloqa tarmoqlarida fuqaroning tasviri e’lon qilingan yoki foydalanilgan bo‘lsa-yu, biroq buni amalga oshirgan shaxs aniqlanmasa, bunday huquqbuzarlik uchun javobgar shaxs deb tasvir joylashtirilgan resurs (sayt, platforma) egasi hisoblanishi kerakligi asoslantirildi. Bunday hollarda resurs egasining aybi tasvirni bevosita e’lon qilishda emas, balki shu resursda axborot joylashtirayotganning shaxsini aniqlash imkonini beruvchi tartib (identifikatsiya tizimi)ni yo‘lga qo‘ymaganida ifodalanadi.

